



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№11
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,
4-noyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woogyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oilaning maktabgacha yoshdagi bolalar estetik tarbiyasidagi o'rni	24
<i>Abdullayeva Ma'sudaxon Abdubannayevna</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga metodik tayyorlash texnologiyalari	27
<i>Abdubannoyeva Muxlisaxon Iqboljon qizi, Abdullayev Alibek Qodiraliyevich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida bulutli xizmatlardan foydalanish zaruriyati	30
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Turdaliyeva Muslimaxon Jahongir qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida fortepiano chalishni o'rgatish metodikasi	34
<i>Abduvaxobova Nilufar Abdumannon qizi</i>	
Maktabda fizika fanini o'qitishda innovatsion yondashuv	38
<i>Alinazarova Mahfuza</i>	
Tasavvufdagi "komil inson" konsepsiyasining hozirgi ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv sifatida talqini	43
<i>Aqilxonov Saidolimxon Abdurashid o'g'li</i>	
Tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish omillari va pedagogik shart-sharoitlar	48
<i>Choriyeva Gulbaxor Shotemirovna</i>	
Robototexnika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanib mustaqil ta'limni tashkil etish	53
<i>Elmonov Sirojiddin Mamadiyarovich</i>	
Xalqaro baholash dasturlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha jahon tajribasi	58
<i>Ergasheva S. T.</i>	
Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar orqali o'quvchilarning kognitiv salohiyatini rivojlantirish	61
<i>Eshmamatova Dilnoza Jovli qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyatini oshirishda tarbiyachi mahorati	64
<i>Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi</i>	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni takomillashtirish	68
<i>Hojikarimova Gulasal Tadjaliyevna</i>	
Xorijiy talabalarga o'zbek tilini o'rgatishda elektron platformalar yaratish	71
<i>Jo'rayeva Matluba</i>	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun raqamli ta'lim muhitini modellashtirish va uning samaradorlik omillari	74
<i>Komilova Z. X.</i>	
O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati	80
<i>M. Yu. Mahkamova</i>	
Psixologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirish masalalari	86
<i>Madazizova Difuza Raxmatullayevna</i>	
Integrating Listening and Speaking Skills in ESP (English for Specific Purposes) Classes	90
<i>Madina Tilavova</i>	
Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida neyropedagogik yondashuvlar	94
<i>N. O. Saidova</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida radiologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarning metodologik roli	99
<i>Nazarova Gulchexra Shuxratdjonovna</i>	
Ijodkorlik tushunchasining mohiyati va uning ta'limdagi roli	103
<i>Ochilova Dilbar Isroilovna</i>	
Alaliyani boshqa nutqiy nuqsonlar bilan farqli xarakteristikasi	108
<i>Oripova Zilola</i>	
Ingliz tilini o'qitishda suggestopediya metodini joriy etishning samaradorligi	113
<i>Pulatova Sitora Abdurazzoq qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalari menejerlarining kasbiy-boshqaruv kompetentligi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari	118
<i>Qarshiboyev Sharof Egamnazarovich</i>	
Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning yosh badmintonchilar texnik-taktik tayyorgarligiga ta'siri	122
<i>Qurbanova Ilmira Alisher qizi</i>	



Blended Learning	125
Quvandikova Xadicha	
Fizika darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish	129
Raxmanov Valijon Turdaliyevich, O'razaliyev Alijon Xasan o'g'li	
"Qurilish jarayonlari texnologiyasi" fanida loyihalash kompetentligining tarkibiy tuzilmasi va uni raqamli ta'limga moslashtirish	135
Raxmonova Nazokat Umaraliyevna	
Vitagen texnologiyalar asosida talabalar mediamentalitetini rivojlantirishda sun'iy intellekt (AI) dasturlaridan foydalanishning tahliliy modeli	140
Rustamova Nodira Rustamovna	
Talabalarda kooperativ ta'lim asosida motivatsiyani rivojlantirish usullari	145
Sitora Toshmatova	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ kompetensiyani shakllantirishning zaruriyati	149
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Musiqqa ta'limining pedagogik asoslari va metodik tizimi	153
Toshpulatova Said Kuzibaevna	
Texnologiya fanini o'qitishda eng samarali metodlardan foydalanish	158
Turdiyeva Shahzoda Eshdavlat qizi	
Enhancing University Students' Self-Directed Learning Through Edtech Tools	161
Ulasheva Lobar	
Fanlararo loyiha ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilarning dizayn fikrlash salohiyatini oshirish	164
Valiyeva Nargiza Athamboyevna	
Alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari	169
Xakimova Sarvinov Sharifjon qizi	
Sun'iy intellekt asosida yaratilgan ta'lim platformalari: samaradorlik tahlili va pedagogik yondashuvlar	173
Xanbabayev Xakimjon Ikramovich, Erkinov Jasurbek Hasanjon o'g'li	
Tasavvufdagi "muhosaba" va "tafakkur" amallarining o'z-o'zini refleksiya metodlari sifatida qo'llanilishi	176
Xoshimov Nuriddin Mamadaliyevich	
Milliy sport va ommaviy o'yinlarning badiiy-estetik ahamiyati	182
Yaxyayeva Sojida Abdurahimovna	
Ota-ona mehrining bola psixologiyasiga ta'siri	185
Yulchiyeva Shohsanam Dilshod qizi	
Nutq rivojlanishi orqada qolgan bolalarda qo'llaniladigan innovatsion usullari samaradorligi	189
Ahmedova Nargiza Muzaffarovna	
Факторы, сдерживающие развитие науки в контексте требований к диссертационным работам	193
Зайналов Жахонгир Расулович, Нурмухамедов Аббос Мамадалиевич, Шадманов Камолиддин Кажакджанович, Самигова Нодира Хамидуллаевна	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	197
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	
Психологическая консультация: современная практика, задачи и перспективы развития	203
Раупова Шохида Ахроровна	
Подготовка будущих педагогов к инклюзивному обучению детей с ограниченными возможностями здоровья: задачи и перспективы	207
Сайфутдинова Насиба Нурматовна	
Формирование иноязычной грамотности у курсантов военных вузов: социально-психологические факторы	211
Сулейманова Нилуфар Камиловна	
O'qituvchi shaxsiy kompetensiyasining mohiyati va pedagogik faoliyatdagi o'rni	214
Abdiraxmonova Guliston Muzaffar qizi	
Bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonining milliy va umuminsoniy tamoyillari	218
Abdumutalipova Gulshodaxon Nurbek qizi	
Fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyat va uni rivojlantirish jarayonlari	221
Abdusalimova Shaxnoza Quduratullayevna	
Ta'lim menejmenti tizimida o'qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirish strategiyalari	224
Abduxalilova Iroda Nozimxonovna	

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy-pedagogik hamkorlikda tarbiyalashda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ning ustuvor vazifalari	229
Abirova Umida Nazarovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'lim sharoitida differensiyalashtirilgan dars mashg'ulotlarini tashkil etishga o'rgatish (kompetentligini shakllantirish/rivojlantirish) usullari.....	232
Adhamova Diyora Sanjar qizi	
Musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishda sambochilarning energiya sarfi va tiklanish mexanizmlari tahliliy	239
Tangriyev Abdukarim Tovashevich	
Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining harakat faolligini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati.....	244
Hafizov Shahriyor Shavkatovich	
Bo'lajak tarbiyachilarning transversal: tanqidiy va innovatsion fikrlash kompetensiyalari	248
Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi	
Axborotning gnoseologik mohiyati.....	256
Kamolova Munajatxon Jaloldinovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari	259
Mamatova Aziza Bo'riboyevna	
Akademik litseylarda kimyo fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari.....	262
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich	
Pedagogik oliy ta'limda talabalarining kasbiy ijtimoiylashuvini korporativ madaniyat asosida rivojlantirish metodikasi.....	267
Maxkamova Dilafruz Aliyevna	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun xorijiy tillarni o'qitishda lingvomadaniy yondashuv	271
Normamatova Kamola Gulmamat qizi	
O'zbek tili izohli lug'atida iboralarning grammatik tavsifi (bosh komponentli iboralar misolida).....	274
S. Sh. Azamatova	
Oila instituti va gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy muammolari	277
Salayeva Aziza Muhammadmurot qizi	
Gender yondashuv asosida talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning namunaviy mezonlari.....	282
Xolova Mohigul Shavkatovna	
Pedagogika yo'nalishi talabalari huquqiy savodxonligini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish.....	287
Xudoyberganov Atham	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik komponentlikni TRIZ texnologiyasi yordamida rivojlantirish	291
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Fayzullayeva Nazokat Uchqun qizi	
Цифровизация и трансформация образования как социально-педагогическое явление	295
Кадирова Наргиза Азаматовна	
Методика формирования креативного мышления у студентов-филологов на основе проблемно-ориентированных заданий (на материале английского языка)	298
Мамырбаева Дина	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	304
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	

OILANING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR ESTETIK TARBIYASIDAGI O'RNI

Abdullayeva Ma'sudaxon Abdubannayevna

Pedagogika fanlari nomzodi, professor
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishda oilaviy muhitning ahamiyati, ota-onaning shaxsiy namunasi, madaniy qadriyatlar va oila ichidagi kommunikativ muhitning ta'siri tahlil qilingan. Bolaning go'zallikni his etish, idrok qilish va baholash qobiliyatlari asosan erta yoshda shakllanadi. Shu sababli oila a'zolari tomonidan yaratilgan estetik muhit bolaning ruhiy va ma'naviy kamolotida muhim o'rin tutadi. Tadqiqotda nazariy tahlil va psixologik kuzatish metodlaridan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: estetik tarbiya, oilaviy muhit, estetik tasavvur, maktabgacha yosh, go'zallik hissi, ota-ona namunasi, shaxs rivoji.

Abstract: This article analyzes the importance of the family environment in the formation of aesthetic perceptions among preschool children, as well as the influence of parental role models, cultural values, and the communicative atmosphere within the family. A child's ability to feel, perceive, and appreciate beauty develops mainly at an early age. Therefore, the aesthetic environment created by family members plays a crucial role in the child's spiritual and moral development. The study employed theoretical analysis and psychological observation methods.

Key words: aesthetic education, family environment, aesthetic perception, preschool age, sense of beauty, parental example, personality development.

Аннотация: В данной статье анализируется значение семейной среды в формировании эстетических представлений у детей дошкольного возраста, влияние личного примера родителей, культурных ценностей и коммуникативной атмосферы в семье. Способности ребёнка чувствовать, воспринимать и оценивать красоту формируются преимущественно в раннем возрасте. Поэтому эстетическая среда, создаваемая членами семьи, играет важную роль в духовном и нравственном развитии ребёнка. В исследовании использованы методы теоретического анализа и психологического наблюдения.

Ключевые слова: эстетическое воспитание, семейная среда, эстетическое представление, дошкольный возраст, чувство прекрасного, пример родителей, развитие личности.

KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bilimdon, mustaqil fikrlovchi, huquqiy bilimga ega, ijodiy izlanuvchi, turli sohalar bo'yicha iste'dodli avlodni tayyorlashga qaratilgan. Maktabgacha yosh – bu bolaning shaxsiy rivojida eng muhim, psixik jarayonlar faol shakllanadigan bosqichdir. Aynan shu davrda bola atrof-muhitni, go'zallikni, ranglar uyg'unligini, tovush va ohanglarni idrok etishni o'rganadi. Estetik tarbiya bolaning ichki dunyosini boyitadi, unda nafosat, did, tozalik va uyg'unlik sifatlarini rivojlantiradi. Bugungi globallashuv davrida ba'zi bolalarda estetik qadriyatlarning zaiflashuvi, texnologik muhit ta'sirida sun'iy go'zallikka moyillik kabi holatlar ham kuzatilmoqda. Shu sababli estetik tarbiyani maktabgacha ta'lim muassasalari bilan birga, ayniqsa oilaviy muhitda to'g'ri yo'naltirish bugungi zamonaviy pedagogika va psixologiya oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Oila – bu bolaning birlamchi ijtimoiy muhitidir. Ma'lumki, oilada estetik tasavvurlar shakllanishiga nafaqat moddiy sharoit, balki ruhiy, ma'naviy va madaniy omillar ham ta'sir ko'rsatadi. Bolaning estetik qarashlari ota-onaning xulq-atvori, uy muhitidagi tartib, musiqiy va san'atga oid muhit orqali mustahkamlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolaga singdirilgan bilim, estetik ta'lim-tarbiya va qadriyatlar uning kelgusidagi hayotini belgilab berishi sababli maktabgacha ta'lim tizimi uyg'un rivojlangan shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur muammoni ham inobatga olgan holda, yurtimizda maktabgacha ta'limni rivojlantirish va samarali



faoliyat ko'rsatishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi hamda kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [1, 36-38-b.].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirish masalasi ko'plab pedagog va psixolog olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Estetik tarbiya nazariy asoslarini ishlab chiqqan rus olimlari orasida A. Komenskiy, K. D. Ushinskiy va L. S. Vigotskiylarning qarashlari alohida ahamiyatga ega. A. Komenskiy o'z asarlarida bolani go'zallikni his etishga o'rgatishning eng muhim omili sifatida tabiat va san'atni ko'rsatgan. U bolalarga estetik ta'sir ko'rsatish jarayonini o'yin, kuzatish va ijodiy faoliyat orqali amalga oshirish zarurligini ta'kidlagan. K. Ushinskiy esa estetik tarbiyani shaxs kamolotining ajralmas qismi deb bilgan. Unga ko'ra, go'zallikni anglash bolaning ma'naviy dunyosini boyitadi, ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otadi va axloqiy fazilatlarini shakllantiradi. L. S. Vigotskiy izlanishlarida esa estetik idrokni bolaning ijtimoiy tajribasi bilan bog'laydi. Uning fikricha, bola go'zallikni o'zlashtirishda atrofdagi kattalarning munosabatiga tayanadi. Shu bois oila va maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari bolaning estetik hislarini rag'batlantiruvchi muhit yaratishlari lozim. Shuningdek, bolalarning go'zallikka bo'lgan ehtiyojini uyg'otish orqali ularni mehr, samimiyat va insoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash mumkinligini ta'kidlaydi. U estetik tarbiyani bolaning ichki dunyosini uyg'otuvchi, ruhiy uyg'onishga sabab bo'ladigan omil sifatida talqin qiladi.

Buyuk o'zbek allomalaridan A. Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida estetik tarbiyani milliy qadriyatlar bilan uyg'un holda olib borish zarurligini qayd etgan. Uningcha, go'zallikni anglash insonni nafosat, odob va ma'naviyat sari yo'naltiradi. Ko'plab o'zbek olimlari tadqiqotlarida aytilishicha, bolalarda estetik madaniyatni shakllantirishda oila, bog'cha va ijtimoiy muhitning o'zaro hamkorligi muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, estetik tarbiya bolaning axloqiy va hissiy rivojlanishining asosi hisoblanadi. Shuningdek, estetik idrokni milliy an'analar, xalq og'zaki ijodi va xalq amaliy san'ati orqali rivojlantirish zarurligini ham ilgari surganlar. O'zbek pedagog va psixolog olimlari V. Karimova, Z. Nishonova, N. Egamberdiyeva, H. Yoldoshev, A. Jabborov, N. Sog'inov, Z. Rasulova tadqiqotlarida ham bu boradagi muhim ilmiy qarashlar yoritilgan. Demak, bolalarda estetik madaniyatni shakllantirishda oila, bog'cha va ijtimoiy muhitning o'zaro hamkorligini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Unga ko'ra, estetik tarbiya bolaning axloqiy va hissiy rivojlanishining asosi bo'lib, estetik idrokni milliy an'analar, xalq og'zaki ijodi va xalq amaliy san'ati orqali rivojlantirish muhim omillardan biridir. Yuqoridagi manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, estetik tarbiya bolalikdan boshlanishi, u oila va ta'lim muassasalari o'rnatadagi uzviy hamkorlikda olib borilishi zarur. Estetik tasavvurlarni shakllantirish orqali bola nafaqat go'zallikni his etadi, balki uni yaratish, qadrlash va hayotida qo'llashni o'rganadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy tahlil, kuzatish, suhbat hamda tahlil va sintez metodlaridan foydalanildi. Avvalo, pedagogik va psixologik adabiyotlar, estetik tarbiya nazariyasi hamda oila psixologiyasiga oid ilmiy manbalar chuqur o'rganildi. Bu orqali estetik tasavvurlar shakllanishi jarayonining psixologik-pedagogik asoslari aniqlab olindi. Shuningdek, 5–6 yoshli bolalarning oilaviy muhitdagi estetik xulq-atvori, o'zini tutish madaniyati va go'zallikka bo'lgan qiziqishlari kuzatildi. Kuzatish natijasida oiladagi madaniy muhitning bolalar hissiy rivojiga ta'siri tahlil qilindi. Ota-onalar bilan estetik tarbiya haqidagi tushunchalari, farzand tarbiyasida qo'llaydigan usullari va ularning oilaviy qadriyatlarga bo'lgan munosabati yuzasidan suhbatlar o'tkazildi. Ushbu jarayon orqali ota-onalarning estetik ong darajasi aniqlashga harakat qilindi. Olingan natijalar umimlashtirilib, bolalarning estetik tasavvurlari shakllanishida oilaviy omillar – ota-onaning shaxsiy namunasi, uy muhitining estetik holati va milliy qadriyatlarining o'rni aniqlab berildi.

Tadqiqotning nazariy asosini A. Komenskiy, K. D. Ushinskiy, L. S. Vigotskiy, Sh. A. Amonashvili kabi klassik pedagog va psixologlarning estetik tarbiya haqidagi qarashlari tashkil etadi. Shuningdek, o'zbek olimlaridan A. Avloniy, H. Yo'ldoshev va M. Tojiyevlarning milliy estetik tarbiya hamda oila madaniyatiga oid ilmiy fikrlaridan foydalanildi [1, ...87-b.].

TAHLILLAR VA NATIJALAR

O'tkazilgan kuzatish va suhbatlar natijasida ma'lum bo'ldiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik tasavvurlar shakllanishida oilaviy muhit hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bolaning go'zallikni his etish va baholash qobiliyati ko'p jihatdan uning oilasidagi madaniy muhit, ota-onaning shaxsiy namunasi hamda milliy qadriyatlarga munosabati bilan belgilanadi. Ota-onaning shaxsiy namunasi bolaning estetik qarashlarini shakllantirishda muhim jihatlardan biridir. Bola kattalarning kiyinish madaniyati, so'zlashuvi, o'zini tutish tarzi orqali estetik tarbiya mezonlarini anglay boshlaydi. Ota-onalar o'z xulq-atvori, muloyim munosabati va tartibli hayoti bilan bolaga bevosita ta'sir ko'rsatadilar. Xona muhitining estetik jihatdan toza, tartibli va uyg'un bo'lishi ham



bolada nafislik va did hissini shakllantiradi. Xonada gullar, san'at asarlari, musiqiy vositalar, rang-barang kitoblar va milliy bezaklarning mavjudligi bolaning his-tuyg'ularini boyitadi. Shuningdek, musiqaga, qo'shiq va tasviriy san'atga yaqin bo'lgan bolalar estetik hisni tezroq shakllantiradilar. Ota-onalar tomonidan qo'shiq aytish, rasm chizish, tabiatni kuzatish kabi faoliyatlar tashkil etilganda, bola go'zallikni anglashni amaliy faoliyat orqali o'rganadi. Nutq madaniyati va muomala odobi ham estetik tarbiyaning ajralmas qismidir. Go'zal so'z, muloyim ohang va odobli munosabat bolaning ichki estetik dunyosini shakllantiradi.

Tadqiqotimiz davomida aniqlanishicha, o'zbek oilalarida milliy qadriyatlarga tayangan estetik tarbiya an'analari saqlanib qolgan. Xonadonlarda tozalik, ozodalik va mehmondo'stlik qadriyat sifatida qoraladi. Shu bois milliy urf-odatlar estetik tarbiyaning tabiiy manbai hisoblanadi [4, ...17–22-b.]. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirish jarayoni oila muhitining sifatiga bevosita bog'liqdir. Ota-onaning shaxsiy namunasi, uy ichidagi madaniy muhit, musiqaga va san'atga bo'lgan munosabat, shuningdek, milliy qadriyatlarning oilaviy hayotda namoyon bo'lish darajasi bolaning estetik dunyoqarashini belgilab beradi. Estetik tarbiya bolaning faqat tashqi didini emas, balki ichki ruhiy uyg'unligini ham shakllantiradi. Bola go'zallikni anglay boshlagach, u nafaqat tashqi ko'rinishga, balki so'z, xatti-harakat, muomala va his-tuyg'ulardagi nafislikni ham qadrlay oladi. Shu bois estetik tarbiya bolani yaxlit shaxs sifatida shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Oilaviy muhitda estetik yondashuvning mavjudligi bola rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatsa, uning yo'qligi didsizlik, befarqlik va hissiy sovuqlikka olib keladi. Ota-onalar farzandlari bilan birgalikda san'at asarlarini tomosha qilish, musiqa tinglash, tabiat manzaralarini kuzatish orqali ularning estetik hissini rivojlantira oladilar. Shuningdek, milliy qadriyatlarga asoslangan estetik tarbiya o'zbek xalqining madaniy merosini saqlab qolish va yosh avlodga yetkazishning samarali vositasidir. Ota-onalar milliy kiyimlar, xalq qo'shiqlari, urf-odatlar, bayram marosimlari orqali bolalarda milliy g'urur va go'zallikka muhabbatni uyg'otadilar. Pedagogik jarayonda estetik tarbiyani kuchaytirish uchun maktabgacha ta'lim muassasalari va oilalar o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachilar ota-onalarga estetik tarbiya metodlari, go'zallikni his etishga o'rgatish usullari haqida amaliy tavsiyalar berishlari lozim [2, ...60-b.].

XULOSA

Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirish jarayoni – bu bolaning go'zallikni sezish, uni his etish va unga munosabat bildirish qobiliyatini rivojlantirish jarayonidir. Ushbu jarayon tarbiyaviy, ijodiy va hissiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Estetik tarbiya orqali bolalar atrofdagi tabiat, san'at asarlari, musiqa, ranglar, shakllar hamda insoniy munosabatlardagi go'zallikni anglashni o'rganadilar. Ular o'z his-tuyg'ularini rasm, qo'shiq, o'yin yoki ijodiy faoliyat orqali ifoda etishga odatlanadilar. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati tarbiyachining estetik didi, bolalar bilan ishlash uslubi va yaratilgan muhitga bevosita bog'liqdir. Tarbiyachi bolalarda go'zallikka muhabbat, nafislikni qadrlash, atrofdagi narsalarga e'tibor bilan qarash odatini shakllantirishi zarur.

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirish ularning ruhiy dunyosini boyitadi, ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, go'zallikni anglash orqali mehr, samimiyat va ma'naviy qadriyatlarga yo'naltiradi. Bu esa keyingi ta'lim bosqichlarida bolalarning badiiy, madaniy va shaxsiy kamolotiga mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shoumarov, G'. B., & Rasulova, Z. A. (2012). Yoshlarda oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar. Oila barqarorligi: muammolar, tajribalar, istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Toshkent, 32–38-b.
2. Xoshimov, K., Nishonova, S., & Inomova, M. va boshq. (1996). Pedagogika tarixi: o'quv qo'llanma. Toshkent: O'qituvchi. 488 b.
3. Komenskiy, Y. A. (1982). Didaktik asoslar va estetik tarbiya nazariyasi. Moskva: Pedagogika nashriyoti. 94–102-b.
4. Avloniy, A. (1992). Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O'qituvchi. 56 b.
5. Shoumarov, G'. B., & Turg'unboeva, A. G. va boshq. (2022). Oila psixologiyasi: o'quv qo'llanma. Toshkent. 87 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.